

O‘ZBEKISTON OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINING HOLATI VA RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI

Soliyev Axmadjon

Namangan davlat texnika universiteti
i.f.d. professori

Ibroximov Avazbek

Namangan davlat texnika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bozorining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqboldagi yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqotda so‘nggi yillardagi ishlab chiqarish hajmlari, import-eksport balansi, narxlar indeksi hamda iste‘mol ko‘rsatkichlari statistik ma‘lumotlar asosida o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, oziq-ovqat bozorining o‘shish sur‘atlari barqaror bo‘lsa-da, ayrim mahsulot turlarida importga qaramlik saqlanib qolmoqda. Maqolada ichki ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, logistika tizimini modernizatsiya etish va raqobatbardoshlikni oshirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar: oziq-ovqat bozori, ishlab chiqarish hajmi, import-eksport, raqobatbardoshlik, bozor kon’yunkturasi, rivojlanish yo‘nalishlari.

Аннотация

В данной статье анализируется современное состояние и направления развития рынка продовольственных товаров Узбекистана. Исследование основано на статистических данных, отражающих объемы производства, импортно-экспортный баланс, индекс цен и показатели потребления за последние годы. Установлено, что, несмотря на устойчивые темпы роста, сохраняется зависимость от импорта по отдельным видам продукции. В работе предложены практические рекомендации по диверсификации внутреннего производства, модернизации логистической инфраструктуры и повышению конкурентоспособности продовольственного рынка.

Ключевые слова: продовольственный рынок, объем производства, импорт и экспорт, конкурентоспособность, рыночная конъюнктура, направления развития.

Abstract

This article analyzes the current state and development trends of Uzbekistan’s food products market. The research is based on statistical data reflecting production volumes, import-export balance, price indices, and consumption indicators over recent years. The results show that although the market demonstrates stable growth, dependency on imports remains for certain product categories. The study provides practical recommendations for diversifying domestic production, modernizing logistics systems, and enhancing the competitiveness of the national food market.

Keywords: food market, production volume, import-export, competitiveness, market conditions, development trends.

KIRISH

O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanishining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va oziq-ovqat mahsulotlari bozorini barqaror rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining o‘shishi, urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi hamda iste‘mol madaniyatining o‘zgarishi mamlakat ichki bozorida sifatli, xavfsiz va raqobatbardosh oziq-ovqat mahsulotlariga talabni keskin oshirmoqda. Shu bilan birga, global miqyosdagi iqtisodiy o‘zgarishlar, logistika zanjirlaridagi uzilishlar va iqlim o‘zgarishi kabi omillar O‘zbekiston oziq-ovqat bozorining barqarorligiga ham bevosita ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sanoati modernizatsiyasi, import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, oziq-ovqat mahsulotlari chuqur qayta ishlanishini kengaytirish hamda raqobatbardoshlikni oshirish kabi strategik maqsadlar nazarda tutilgan. Masalan, farmonda “bir necha yil ichida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarilishini 1,5 barobar oshirish va eksport hajmini 2 barobar ko‘paytirish” ko‘zda tutilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Oziq-ovqat bozorining shakllanishi va rivojlanishi hozirgi davrda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik ahamiyatga ega masala sifatida qaralmoqda. Ushbu mavzu bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar agrar siyosat, oziq-ovqat xavfsizligi va mintaqaviy rivojlanish yo‘nalishlarini qamrab oladi.

Klassik iqtisodiy nazariyada A. Smit, D. Rikardolar bozor tizimi tabiiy muvozanat asosida faoliyat yuritadi, deb ta‘kidlanadi [1]. Ammo zamonaviy sharoitda bu yondashuv iqlim, resurslar tengsizligi va inson omilining ta‘sirini to‘liq qamrab olmaydi.

XX asrda mintaqaviy iqtisodiyot nazariyasi W. Isard [2], P. Krugman [3] oziq-ovqat ishlab chiqarish, tashish va iste‘mol markazlari o‘rtasidagi muvozanatni tahlil qilgan. Ularning tadqiqotlarida ishlab chiqaruvchi va iste‘molchi o‘rtasida inson mehnati, logistika tizimi va ijtimoiy infratuzilmaning ahamiyati alohida qayd etiladi.

O‘zbekistonlik olimlar – A. Abdurahmonov [4], S. Qodirov [5] – milliy oziq-ovqat bozorini rivojlantirishda inson omili, fermerlarning iqtisodiy faolligi hamda davlat qo‘lloving o‘rni muhimligini ta‘kidlaydi. Ularning tadqiqotlarida mintaqaviy tenglik, bandlik va qishloq aholisi daromadlari o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilinadi.

FAO (2023) [6] hisobotida esa oziq-ovqat tizimida barqarorlikni ta‘minlash uchun inson resurslarini rivojlantirish, texnologik malaka va ijtimoiy hamkorlikni kuchaytirish zarurligi alohida ko‘rsatib o‘tilgan.

O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bozorining shakllanishi, rivojlanishi va uning iqtisodiyotdagi o‘rniga bag‘ishlangan ilmiy manbalar tahlili ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borilganligini ko‘rsatadi. Bulardan, Marifat Xudoyberdiyeva- “O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari savdosining rivojlanish evolyutsiyasi” nomli maqolasida [7], Muxtorova M.A. (PhD, 2021) — “O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari” dissertatsiyada [8], G‘afurov U.V. (DSc, 2020) — “Oziq-ovqat xavfsizligi va hududiy bozorlarni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari” [9] dissertatsiyada, Zuxra T.X.

Abduraxmanova (2022)-“O‘zbekiston oziq-ovqat bozori nazariy tahlili”[10] maqolasida mamlakatda oziq-ovqat savdosining tarixiy bosqichlari, modernizatsiya jarayonlari va bozor mexanizmlarining o‘zgarishini chuqur tahlil qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir nechta ilmiy-uslubiy yondashuvlar va tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etadi. Mazkur yondashuv oziq-ovqat bozori faoliyatining barcha tarkibiy qismlarini — ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimot, iste‘mol va boshqaruv jarayonlarini yagona tizim sifatida o‘rganish imkonini berdi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida SWOT-tahlil – O‘zbekiston oziq-ovqat bozorining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlashda ishlatildi, qiyosiy-statistik tahlil – oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, narxlar dinamikasi, eksport-import ko‘rsatkichlarini solishtirishda qo‘llanildi, ekspert baholash – soha mutaxassislari, fermer xo‘jaliklari rahbarlari va iqtisodchi olimlar fikrlariga asoslanib, bozor infratuzilmasining rivojlanish istiqbollari baholandi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi tizimli, empirik va ekspert yondashuvlarni birlashtirgan bo‘lib, O‘zbekiston oziq-ovqat bozori holatini kompleks tahlil qilish va istiqboldagi rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari bozori so‘nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichiga kirgan bo‘lib, bu jarayon mamlakat iqtisodiy xavfsizligi va aholining farovonligini ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Oziq-ovqat sanoatining o‘sishi, bir tomondan, ishlab chiqarish quvvatlarining modernizatsiya qilinishi, ikkinchi tomondan esa, davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar natijasidir. Xususan, “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”, Prezidentning 2021-yil 20-maydagi PQ–5117-son qarori va “Agrosanoat majmuasini rivojlantirish strategiyasi” doirasida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilar salohiyatini oshirish va eksportni kengaytirish masalalari ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston Respublikasi 2015-2024 yillardagi oziq-ovqat mahsulotlari va chakana savdosi asosiy ko‘rsatkichlari¹

Yillar	Oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar Importi (mln AQSH doll)	Oziq-ovqat mahsulotlari exporti (mln AQSH doll)	Chakana savdo aylanmasi (mlrd so‘m)	Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (Ming so‘m)
2015	18511,6	1314,2	1239,6	71184,1	2295,3
2016	22400,5	1144,6	644,9	88071,6	2790,7
2017	23217,7	1049,0	817,9	105229,9	3276,5
2018	25256,0	1327,4	1029,9	133195,2	4079,7

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sahifasi-stat.uz

Yillar	Oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar Importi (mln AQSH doll)	Oziq-ovqat mahsulotlari exporti (mln AQSH doll)	Chakana savdo aylanmasi (mlrd so‘m)	Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi (Ming so‘m)
2019	35337,3	1608,5	1436,4	166094,4	4994,7
2020	42314,9	1851,3	1336,2	199518,8	5887,4
2021	48643,3	2509,5	1371,8	252056,6	7297,2
2022	57547,3	3392,9	1631,5	270687,2	7679,1
2023	65678,2	3495,7	1777,6	330448,1	9176,6
2024	102732,6	3695,8	2175,0	410068,1	11144,0

O‘zbekiston Respublikasida 2015–2024-yillar oralig‘ida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, import va eksport ko‘rsatkichlari hamda chakana savdo aylanmasi doimiy o‘shish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. Ushbu tahlil jadvaldagi asosiy raqamlar va ko‘rsatkichlar asosida amalga oshirildi.

2015-yilda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 18 511,6 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda u 102 732,6 mlrd so‘mga yetdi. Bu ko‘rsatkich 9 yil ichida 5,5 barobarga oshganini bildiradi. O‘shish sur‘ati o‘rtacha yillik 20–25 % atrofida bo‘lgan.

2015-yilda oziq-ovqat importi 1 314,2 mln AQSH dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilda u 3 695,8 mln dollarga yetdi. 2015–2017-yillarda import ko‘rsatkichlari pasayish yoki barqaror trendni ko‘rsatgan: 1 314,2 mln dollardan 1 049,0 mln dollargacha kamaygan. 2018-yildan boshlab import hajmi ortgan bo‘lib, 2021–2024-yillarda sezilarli o‘shish kuzatiladi.

Bu holat ichki talabning ortishi, shuningdek, eksportni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Import hajmining yuqoriligi ichki ishlab chiqarish hajmi bilan birgalikda ichki bozorni to‘liq qoplash imkoniyatini yaratadi.

2015-yilda eksport hajmi 1 239,6 mln dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda u 2 175,0 mln dollarga yetdi. 2016-yilda eksport hajmi qisqarish (644,9 mln \$) kuzatilgan, bu ichki ishlab chiqarishning yetarli darajada rivojlanmagan davri bilan bog‘liq. 2017–2024-yillarda eksport hajmi uzluksiz o‘shib bordi, ayniqsa 2022–2024-yillarda o‘shish sur‘ati yuqori bo‘ldi. Eksportning oshishi ichki ishlab chiqarishning rivojlanishi va eksport salohiyatining ortishini ko‘rsatadi.

Chakana savdo aylanmasi 2015-yilda 71 184,1 mlrd so‘mni tashkil qilgan bo‘lsa, 2024-yilda 410 068,1 mlrd so‘mga yetdi. Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi esa 2015-yilda 2 295,3 ming so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024-yilda 11 144,0 ming so‘mga oshdi. Bu ko‘rsatkich 5 barobarga yaqin o‘shishni anglatadi va aholining xarid qobiliyati ortganini ko‘rsatadi. 2015–2018-yillarda o‘shish nisbatan sekin, ammo 2019–2024-yillarda tezlashgan trend kuzatiladi. Shu bilan birga, aholi jon boshiga savdo hajmining oshishi ichki talabning barqaror o‘shishi va chakana savdo tarmog‘ining kengayishi bilan bog‘liq (2-jadval).

2-jadval.
O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bozorining Farg‘ona vodiysi viloyatlarida rivojlanish xususiyatlari¹

№	Viloyatlar	Yillar	Chakana savdo aylanmasi		Oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi(mlrd so‘m)	Oziq-ovqat mahsulotlari Importi (mln AQSH doll)	Oziq-ovqat mahsulotlari exporti (mln AQSH doll)
			Jami (mlrd so‘m)	Aholi jon boshiga (ming so‘m)			
1.	O‘zbekiston Respublikasi	2015	71184,1	2294,6	18511,6	1314,2	1239,6
		2024	410068,1	11143,2	102732,6	3695,8	2175,0
		O‘sishi(%):	576,4	485,6	554,8	281,3	175,5
2.	Namangan	2015	4 166,7	1615,7	753,1	18,0	41,0
		2024	25 185,7	8 127,3	4970,2	157,8	100,4
		O‘sishi(%):	604,4	503,0	659,8	876,7	244,9
3.	Farg‘ona	2015	6 150,8	1770,0	1 366,4	29,56	82,11
		2024	35 545,6	8663,1	6 577,0	167,5	365,3
		O‘sishi(%):	577,9	489,2	481,5	566,7	444,9
4.	Andijon	2015	5 564,3	1 929,4	1 203,7	4,2	3,5
		2024	28 630,5	8 352,7	5 082,6	30,2	79,5
		O‘sishi(%):	514,9	432,7	422,3	719,0	2271,4

Yuqoridagi davr mobaynida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, import va eksport hamda chakana savdo aylanmasi ko‘rsatkichlari sezilarli o‘shish tendensiyasini ko‘rsatmoqda. 2015 yilda respublika bo‘yicha chakana savdo aylanmasi 71,2 trln so‘m bo‘lgan bo‘lsa, 2024 yilda u 410 trln so‘mga yetgan. Bu davrda chakana savdo hajmi 5,8 barobarga oshgan, ya’ni o‘rtacha yillik o‘shish tezligi yuqori bo‘lganini bildiradi.

Namangan viloyatida chakana savdo 2015 yildagi 4,17 trln so‘mdan 25,19 trln so‘mga yetgan (6,0 barobar o‘shish), Farg‘onada 6,15 trln so‘mdan 35,55 trln so‘mgacha (5,8 barobar), Andijonda 5,56 trln so‘mdan 28,63 trln so‘mga (5,1 barobar) oshgan. Bu viloyatlar bo‘yicha o‘shish sur‘ati respublika o‘rtachasi bilan solishtirganda, eng tez Namangan va Farg‘onada kuzatilgan. Bu esa ichki talabning o‘sishi, iste’molchilarning xarid quvvati va chakana savdo tarmoqlarining kengayishi bilan bog‘liq.

2015–2024 yillarda oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi respublika bo‘yicha 2,29 trln so‘mdan 11,14 trln so‘mga yetgan, ya’ni ishlab chiqarish hajmi deyarli 4,9 barobarga o‘sdi. Namangan va Farg‘onada ishlab chiqarish hajmi 5–5,5 barobarga oshgan, Andijonda esa o‘shish nisbatan sekinroq, taxminan 4,3 barobar bo‘lgan. Viloyatlararo farq ishlab chiqarish imkoniyatlari, korxonalar tarmoqlarining rivojlanishi va texnologik yangilanishlar bilan izohlanadi. Ayniqsa, Farg‘ona viloyatida aholining jon boshiga ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshgan, bu hududdagi kichik va o‘rta korxonalar faoliyati kuchayganligini ko‘rsatadi.

¹ Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Respublikada import 2015 yilda 18,51 mlrd AQSH dollaridan 102,73 mlrd dollarga oshgan, ya'ni 5,5 barobarga. Viloyatlar bo'yicha import o'sishi eng yuqori Namangan va Farg'onada (5–6 barobar) kuzatilgan.

Respublika darajasida eksport 1,31 mlrd dollardan 3,70 mlrd dollarga ko'tarilgan (2,8 barobar). Farg'ona viloyatida eksport o'sishi 5,7 barobarga yetgan, bu hududda eksport salohiyati yuqori ekanligini ko'rsatadi. Andijonda esa eksport o'sishi nisbatan sekin, 7,2 barobar, ya'ni kichik miqdor bilan boshlangani sababli sezilarli foiz ko'rsatkich beradi. Bu viloyatda ishlab chiqarish asosan ichki bozor talabini qondirishga qaratilgan. Shu bilan birga, importning eksportga nisbatan tez o'sishi tahlil qilinsa, respublika oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda importga bog'liqlikni kamaytirish strategiyasiga ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi va ishlab chiqarish hajmi ham sezilarli o'sish ko'rsatgan: Respublika darajasida 2015–2024 yillarda aholi jon boshiga chakana savdo aylanmasi 2 295 ming so'mdan 11 143 ming so'mga, ishlab chiqarish hajmi esa 2 295 ming so'mdan 8 663 ming so'mga oshgan. Viloyatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Farg'onada (1 770 mingdan 8 663 ming so'mgacha) qayd etilgan. Bu tendensiya aholining xarid quvvatining oshgani, shuningdek, hududlardagi ishlab chiqarish samaradorligining kuchayganini bildiradi (3-jadval).

3-jadval.

2015-2024-yillarda aholi jon boshiga chakana savdoda sotilgan oziq-ovqat tovarlari tarkibidagi o'zgarishlar¹

№	Oziq-ovqatlar nomi	O'lchov birligi	O'zbekiston Respublikasi		Namangan viloyati		Farg'ona viloyati		Andijon viloyati	
			2015 y.	2024 y.	2015 y.	2024 y.	2015 y.	2024 y.	2015 y.	2024 y.
1	Jami oziq ovqatlar	Ming so'm	1088,1	4947,1	59,0	316,3	82,3	401,5	83,1	407,4
2	Un, yorma, guruch, non va non-mahsulotlari, makaron mahsulotlari	Ming so'm	153,9	623,3	10,0	47,8	13,1	42,7	10,6	55,2
3	Kartoshka	Ming so'm	25,3	142,4	1,8	12,5	2,0	10,7	1,8	13,0
4	Sabzavotlar	Ming so'm	71,0	330,0	3,9	26,4	7,7	35,9	5,0	32,0
5	Mevalar, tarvuz va qovunlar	Ming so'm	94,3	491,3	6,5	42,1	7,6	34,7	6,7	46,1

¹Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

№	Oziq-ovqatlar nomi	O'lchov birligi	O'zbekiston Respublikasi		Namangan viloyati		Farg'ona viloyati		Andijon viloyati	
			2015 y.	2024 y.	2015 y.	2024 y.	2015 y.	2024 y.	2015 y.	2024 y.
6	Go'sht, parranda go'shtini qo'shgan holda	Ming so'm	219,1	777,0	15,3	73,6	20,3	85,5	18,5	81,0
7	Sut va sut mahsulotlari (pishloqdan tashqari)	Ming so'm	15,4	97,1	0,8	5,3	0,9	5,9	0,8	6,3
8	Baliq va baliq mahsulotlari	Ming so'm	7,0	46,7	0,5	2,0	0,4	2,8	0,5	2,3
9	Tuxum	Ming so'm	32,2	138,3	2,5	14,4	3,2	12,7	2,0	11,5
10	Sariyog'	Ming so'm	8,6	43,4	0,7	2,5	0,8	3,4	0,8	2,8

O'zbekistonda oziq-ovqat tovarlari bozori tahlili (3-jadval) shuni ko'rsatmoqdaki, oziq-ovqat mahsulotlarini sotish keyingi 10 yilda keskin o'sishga erishilmoqda. Oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli tarkibidagi o'zgarishlar jahon bozorlaridagi tendensiyalarga muvofiq holda bo'lib, yuqori miqdorda uglevodli tovarlar(un, yorma, guruch, non va non-mahsulotlari, makaron va kartoshka)larining o'sish ko'rsatkichlari, yuqori kaloriyali tovarlar iste'moliga qaraganda pastroq hajmda o'smoqda. Yuqori kaloriyali sabzavotlar, mevalar, go'sht va go'sht mahsulotlari, sut va sut mahsulotlari, baliq va baliq mahsulotlari, tuxum va sariyog'larni sotish ko'rsatkichlari yuqori darajada rivojlanmoqda. Bu holat, keyingi yillarda aholimiz turmush darajasini o'sib borayotgani, ularning iste'mol qilish darajasining sifat ko'rsatkichlarida yaxshi tomonga o'zgarayotganini bildiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari bozori so'nggi yillarda barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda. Bozor infratuzilmasi rivojlanib, ichki iste'mol hajmi kengaymoqda. Shunga qaramay, ayrim turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining import hajmi yuqori bo'lib qolmoqda. Bu esa mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2016–2024-yillar davomida oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi respublika bo'yicha sezilarli darajada oshgan, biroq ayrim viloyatlarda ishlab chiqarish sur'atlari notekis rivojlangan. Shu davrda chakana savdo aylanmasining ortishi aholining xarid qobiliyati va iste'mol talabining o'sishini ifodalaydi.

Bozorni rivojlantirishda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan strategik chora-tadbirlar, xususan, “Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash strategiyasi” (2021–2030-yillar), “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi”, hamda “Oziq-ovqat sanoatini raqamlashtirish dasturi” kabi hujjatlar muhim o‘rin tutmoqda.

Takliflar:

- Oziq-ovqat sanoatida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, ayniqsa, qayta ishlash va saqlash tizimlarida raqamli yechimlardan foydalanish.
- Hududlar kesimida ishlab chiqarishni muvozanatlashtirish – Namangan, Andijon va -Farg‘ona viloyatlarining mavjud xomashyo resurslarini samarali jalb etish.
- Eksport faoliyatini kengaytirish uchun klaster tizimini rivojlantirish va xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish.
- Oziq-ovqat xavfsizligi zaxiralarini shakllantirish va boshqarish mexanizmini takomillashtirish, ayniqsa, strategik mahsulotlar bo‘yicha.
- Davlat-xususiy sheriklik asosida logistika infratuzilmasini rivojlantirish, sovuq zanjir tizimlarini modernizatsiya qilish.
- Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, jumladan, imtiyozli kreditlar va subsidiyalar orqali.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Smith A., Ricardo D. Classical Theories of Market and Trade. London, 2005.
2. Isard W. Methods of Regional Science. MIT Press, 1960.
3. Krugman P. Geography and Trade. MIT Press, 1991.
4. A.Soliyev S.Buzrukxonov Marketing, Bozorshunoslik. Darslik –T, 2010.
5. Abdurahmonov A. O‘zbekiston oziq-ovqat xavfsizligi tizimini rivojlantirish masalalari. Toshkent, 2020.
6. Qodirov S. Agrar siyosat va oziq-ovqat bozorini boshqarish. Toshkent, 2021.
7. FAO. The State of Food Security and Nutrition in the World. Rome, 2023.
8. <https://stat.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy sahifasi
9. Muxtorova M.A. (PhD, 2021) — “O‘zbekiston oziq-ovqat sanoatining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlari” PhD dissertatsiya, 2021
10. G‘afurov U.V. (DSc, 2020) — “Oziq-ovqat xavfsizligi va hududiy bozorlarni rivojlantirishning iqtisodiy asoslari” DSc dissertatsiya, 2020



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, noyabr, 11-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**